

TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

Teshayeva Ruxshona Azim qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti

Til va adabiyot yo'nalishi 4.24-guruh talabasi

Anontatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tarjimashunoslikda uchrayotgan dolzarb muammolar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Unda tarjima jarayonida ekvivalentlik masalasi, milliy-madaniy birliklarning uzatilishi, semantik va pragmatik nomuvofiqliklari, shuningdek, tarjimon shaxsiy kompetensiyasining tarjima sifati va natijasiga ta'siri yoritiladi. Maqolada zamonaviy tarjima amaliyotida qo'llanilayotgan metodlar tahlil qilinib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga doir ilmiy xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy tarjimashunoslik, dolzarb muammolar, ekvivalentlik, semantik, pragmatik nomuvofiqliklari.

Аннотация. В данной статье систематически анализируются актуальные проблемы современного переводоведения. Рассматриваются вопросы эквивалентности в процессе перевода, передача национально-культурных единиц, семантические и прагматические несоответствия, а также влияние личной компетенции переводчика на качество и результат перевода. Кроме того, анализируются методы, применяемые в современной практике перевода, и современной практике перевода и выдвигаются научные выводы и рекомендации по устранению существующих недостатков.

Ключевые слова: современное переводоведение, актуальные проблем, эквивалентность, семантические, прагматические несоответствия.

Abstract: This article systematically analyzes the pressing issues in modern translation studies. It addresses the problem of equivalence in the translation process, the transfer of national and cultural units, semantic and pragmatic mismatches, as well as the impact of the translator's personal competence on the quality and outcome of translation. The article also examines methods used in contemporary translation practice and presents scientific conclusions and recommendations for overcoming existing shortcomings.

Keywords: modern translation studies, pressing issues, equivalence, semantic, pragmatic mismatches.

Tarjimashunoslik insoniyat madaniy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, xalqaro aloqa va madaniy almashinuv jarayonida shakllanib kelgan. Tarjima amaliyoti qadimgi davrlardayoq mavjud bo'lgan bo'lsa-da, tarjimashunoslik mustaqil ilmiy soha sifatida kechroq rivojlandi. Qadimgi Sharq va G'arb sivilizatsiyalarida

tarjima, asosan, diniy, huquqiy va falsafiy matnlarni o‘g‘irish zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan. Xususan, qadimgi Misr, Yunoniston va Rimda tarjima faoliyati keng rivojlangan. O‘rta asrlarda kelib tarjima faoliyati ilm-fan va madaniyat rivojida muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa, IX-XII asrlarda Bog‘doddagi “Bayt ul-hikma” da yunon ilmiy-falsafiy merosining arab tiliga tarjima qilinishi Sharq uyg‘onishiga zamin yaratdi. Keyinchalik, bu asarlar lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa Renessansiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bugungi kunga kelib, tarjima nazariyasi tilshunoslik, adabiyotshunoslik va falsafa bilan uzviy bog‘liq holda rivojlandi. XVII-XIX asrlarda tarjimaning estetik va badiiy jihatlariga e’tibor kuchaydi. XX asrda tarjimashunoslik mustaqil fan sifatida rivojlandi. Bu davrda strukturaviy, funksional, kommunikativ va pragmatik, semantik yondashuvlar vujudga keldi.

Zamonaviy tarjimashunoslik globalashuv, madaniyatlararo muloqotning jadallashuvi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji sharoitida murakkab va ko‘p qirrali ilmiy soha sifatida shakllanmoqda. Ushbu fan nafaqat tarjima amaliyotini, balki tarjimaning nazariy, lingvistik, madaniy, pragmatik va kognitiv jihatlarini ham o‘rganadi. Shu bois hozirgi davr tarjimashunosligida bir qator dolzarb muammolar mavjud bo‘lib, ularni tizimli tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Avvalo, tarjimada ekvivalentlik masalasi hanuzgacha muhim muammolardan biri hisoblanadi. Turli tillar tizimi, grammatik qurilishi va semantik maydonlarning farqlanishi tarjimada to‘liq moslikka erishishni murakkablashtiradi. Ayniqsa, badiiy matnlar, frazeologik birliklar va milliy-madaniy voqealarni tarjima qilish jarayonida mazmuniy va uslubiy muvofiqlikni ta’minlash tarjimondan yuqori darajadagi bilim va tarjimani talab etadi. Yana bir muhim masala shuki, madaniyatlararo tafovutlar bilan bog‘liq muammolardir. Madaniyat – turmush tarzi va uning ko‘rinishi o‘zini ifodalash uchun o‘ziga xos tildan foydalanuvchi omma uchun g‘ayrioddiydir. Biz “madaniy” terminini umumiy va shaxsiy tildan ajratishimiz kerak. “O‘lmoq”, “yashamoq”, “yulduz”, “stol”, “oyna” kabi tushunchalar umumiy bo‘lib, ularni tarjima qilishda muammo yo‘q. Ammo “steppe”, “dacha”, “challar” kabi tushunchalar ma’lum madaniyatga oid va tarjimada muammolarni vujudga keltiradi.¹ Biz tilning maqsadi va manbai o‘rtasida o‘xshashlikka e’tibor berishimiz lozim. Ilmiy-texnik taraqqiyot yangi terminlarning tezkor paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa tarjimashunoslikda terminologik muammolarni yuzaga keltiradi. Ko‘plab yangi terminlar uchun milliy tillarda muqobil variantlarning yo‘qligi yoki bir nechta variantlarning parallel qo‘llanishi tarjima jarayonida noaniqlik tug‘diradi. Terminlarni standartlashtirish va ularning yagona ekvivalentini belgilash zamonaviy tarjimashunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. “ST” (“Source translation – Asl matn nusxasi”) va “TT” (“Target translation – Tarjima matni”) o‘rtasidagi o‘xshashlik

¹ Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – 28 b.

darajasini aniqlovchi tarjimadagi semantik ekvivalentlikning muammolari haqida ma'lumotga ega bo'lish muhimdir.

Agar biz "TTs" ni "STs" bilan qiyoslaganimizda ikki matn o'rtasidagi semantic o'xshashlik darajasini tarjima jarayonida faqar qilishni bilib olishimiz mumkin. Shunga ko'ra, tarjima ekvivalentining bir qancha turlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, 1) maybe there is some chemistry between us that doesn't mix – xarakteri bir-biriga to'g'ri kelmaydigan odamlar ham bo'ladi. 2) A rolling stone gathers no mass – kim uyida o'tira olmasa uni mehribonlik kutmaydi. ²

Tarjima nafaqat lingvistik birliklarni bir tildan ikkinchi tilga ko'chirish, balki muayyan xalqning milliy tafakkuri, qadriyatlar va madaniy xususiyatlarini aniq tarzda yetkazishni talab etadi. Shu sababli tarjima jarayonida milliy-madaniy birliklarning uzatilishi, semantik va pragmatik muvofiqlikni ta'minlash masalalari tarjimashunoslikning muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Milliy-madaniy birliklar til tizimida xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, an'analari va mentalitetini aks ettiruvchi leksik va frazeologik vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Bunday birliklar ko'pincha bevosita ekvivalentga ega bo'lmay, tarjimada turli qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Tarjimon ushbu birliklarni uzatishda izohlash, moslashtirish, tavsifiy tarjima yoki funksional ekvivalentdan foydalanish kabi strategiyalarga murojaat qiladi. Tarjima jarayonida semantik nomuvofiqlik asosan so'z yoki iboraning lug'aviy ma'nosi to'liq mos kelmagan holatlarda yuzaga keladi. Pragmatik nomuvofiqlik esa matnning kommunikativ maqsadi, nutq vaziyati va adresat omilining hisobga olinmasligi natijasida paydo bo'ladi. Ayniqsa, badiiy va publisistik matnlar tarjimasida pragmatik moslikni ta'minlash tarjima sifati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda tarjimonning shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yuqori darajadagi lingvistik bilim, madaniyatlararo kompetensiya va strategik tafakkur tarjimaning muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlaydi. Shunday ekan, zamonaviy tarjimashunoslikda tarjimon kompetensiyasini rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Badiiy-nasriy tarjimada esa til ko'proq kommunikativ, ijtimoiy yoki bog'lovchi maqsadlatga ega bo'ladi. So'z adabiyotning asosiy tarkibiy qismi sifatida ishlaydi, ya'ni badiiy jihatdan o'z vazifasiga ega bo'ladi. Shuning uchun nasr tarjimasida uning muayyan qonunlariga bog'liq san'at sohalariga oid muammolar mavjud. Shu o'rinda "badiiy asar tarjimasi" nuqtayi nazaridan tarjima tushunchasining mohiyati borasida fikr yuritish o'rinli, deb hisoblaymiz. ³

Hozirgi kunda kelib, tarjima amaliyoti globallashuv, axborot oqimining jadallashuvi hamda madaniylararo muloqotning kengayishi bilan bevosita bog'liq holda jadal rivojlanmoqda. Bu jarayonda qo'llanilayotgan tarjima metodlari nafaqat

² Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. – 22 b.

³ Kasparek, C. The Translator's Endless Toil. The Polish Review, 1983.28(2). – P. 83

lingvistik, balki madaniy, pragmatik va kommunikativ omillarni ham inobatga olishni talab etadi. Bugungi kunda tarjima amaliyotida quyidagi asosiy metodlar keng qo'llanilmoqda:

- So'zma-so'z tarjima
- Ma'nodoshlik asosidagi tarjima
- Kommunikativ tarjima
- Funksional-ekvivalentlik metodi

So'zma-so'z tarjima asosan terminologik aniqlikni ta'minlashda muhim bo'lsa-da, badiiy va publisistik matnlarda stilistik noaniqlik hamda semantic sun'iylikka olib kelishi mumkin. M. Koxenning fikriga ko'ra, badiiy tarjima yozma adabiyot paydo bo'lgandan keyingina boshlangan.⁴ Ma'nodoshlik asosidagi tarjima esa matn mazmunini to'liq yetkazishga xizmat qilsa-da, milliy-madaniy rang-baranglikning yo'qolishiga sabab bo'lishi ehtimoli mavjud. Kommunikativ va ekvivalent yondashuvlar matnning pragmatik vazifasini saqlashga yo'naltirilgan bo'lib, ular o'quvchi yoki tinglovchi ehtiyojiga moslashish imkonini beradi. N.Bhatianing fikriga ko'ra, tarjima "manba tili matnining ma'nosi ekvivalent tarjima tili matni vositalari bilan o'zaro aloqa orqali ifodalshdir. Qisqa qilib aytganda, tarjima qilish – bu biror matndagi ma'no boshqa matndagi ekvivalent ma'noga o'tkazishdir."⁵

Umuman olganda, tarjima jarayoni faqat til birliklari mexanik ko'chirish bilangina cheklanmay, balki turli madaniyatlar, dunyoqarashlar va kommunikativ an'analar o'rtasida mazmuniy hamda pragmatik muvofiqlikni ta'minlashni talab etuvchi murakkab ijodiy faoliyatdir. Milliy-madaniy birliklarning semantik aniqlik va pragmatik moslikka erishish tarjimaning sifat darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Demak, zamonaviy tarjimashunoslikda tarjimon shaxsining kasbiy tayyorgarligi va kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish tarjima nazariyasi va amaliyotning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cohen, J. M. Translation. Encyclopedia Americana, 1986.
2. Bhatia, N. The Oxford Companion to the English Language. Oxford: Oxford University Press. 1992.
3. Kasperek, C. The Translator's Endless Toil. The Polish Review, 1983.
4. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012.

⁴ Cohen, J. M. Translation. Encyclopedia Americana, 1986. 27. – P. 12

⁵ Bhatia, N. The Oxford Companion to the English Language. Oxford: Oxford University Press. 1992